ISLOM OLAMIDA TASAVVUFNING TUTGAN O'RNI VA ROLI

Hursanaliyev Nodirbek Raxmatali o'g'li Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi ilmiy xodimi

nodirbekhursanaliyev@gmail.com. Tel: 93-211-60-77

Annotatsiya: Ushbu maqolada tasavvufning tarixiy ildizlari, asosiy g'oyalari, ruhiy-ma'naviy tizimi, islom olamida shakllangan turli tariqatlar, Markaziy Osiyodagi tasavvuf maktablari va ularning ilm-fan, madaniyat hamda ma'naviyat tarixidagi o'rni keng tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Tasavvuf, tariqat, "Muqaddima", sufiylik

Tasavvuf islom madaniyatining ko'p qirrali ma'naviy hodisalaridan biridir. U VIII–IX asrlardan boshlab shakllangan bo'lib, musulmon jamiyatlarida ruhiy poklanish, axloqiy kamolot, insoniy fazilatlar, muhabbat, ma'rifat, koinotning ilohiy mohiyatini anglash kabi g'oyalarni o'z ichiga olgan ta'limotdir. Tasavvufning shakllanishiga Qur'on oyatlari, Payg'ambar Muhammad (s.a.v)ning hadislaridagi ichki poklanish (tazkiya), ixlos, taqvo, sabr, odob kabi tushunchalar asos bo'ldi. Tasavvuf islom tarixida ilm, falsafa, adabiyot, musiqa, me'morchilik, hatto davlat boshqaruvi va ijtimoiy hayotga ham kuchli ta'sir ko'rsatdi.

Tasavvuf faqat diniy-amaliy yo'nalish emas, balki murakkab falsafiy tizim ham bo'lib, unda borliqning yaratilishi, ilohiy muhabbat, insonning qalbiy kamoloti, ruhiy maqomlar va manzillar, tariqatga mansublik, pir-murid munosabati, ma'naviy tarbiya va o'zlikni anglash masalalari chuqur o'rganilgan. Uning kelib chiqishi haqida gapiradigan bo'lsak, arabcha "Suf" – soqol, jun kiyim, yoxud "Safā" – poklik, sof qalb, yana boshqa talqinlarda "Aṣḥab al-ṣuffa" – "Suffa ahli" (Payg'ambar masjidida yashagan taqvodor sahobalar) so'zlari bilan bog'lanadi1. Uning mohiyati tashqi ko'rinishdan ko'ra ichki ma'naviy holatni anglatadi.

1 Lapidus, Ira M. A History of Islamic Societies, Kindle edition, Cambridge University Press, 2014 —page 123–124

Tasavvuf yoki sufiylik, islomda insonni ruhiy va axloqiy jihatdan kamolot sari yetaklovchi ta'limotdir. Tasavvuf so'zining kelib chiqishi va mazmuni haqida olimlar turlicha fikrlar bildirgan. Shu jumladan, Ibn Xaldunning qarashlari haqiqatga eng yaqin deb hisoblanadi. U o'zining mashhur "Muqaddima" asarida tasavvuf so'zi "Suvf" — ya'ni "Jun" yoki "Po'stin" so'zidan kelib chiqqan bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi. Ibn Xaldunga ko'ra, qadim zamonlarda dunyodan chekinib yashagan zohidlar jundan tikilgan kiyim yoki po'stin kiyib yurishgan, bu orqali ular dunyoviy bezaklarga e'tibor bermasdan, odatdagi hayot tarzidan farq qilganlarini namoyon qilganlar.

Tasavvufning ilk ko'rinishlari VIII asrda Iroq, Kufa, Basra, Xijoz hududlarida namoyon bo'ldi. Hasan Basriy, Rabiya Adaviya, Ibrohim Adham kabilar bu ta'limotning dastlabki namoyondalaridan hisoblanadi. Islom tarixshunosligida tasavvuf ilmi Umaviylar xalifaligining (661 – 750) dunyoviyligiga qarshilik va norozilik sifatida paydo bo'lgan.2 Sufiylar islom qonunlariga qat'iy rioya qilgan va turli islom xuquqi hamda ilohiyot maktablariga mansub bo'lganlar. Ularning ko'pchiligi sunniylik tarafdorlari bo'lsa-da, ba'zi so'fiylik yo'nalishlari o'rta asrlarning oxirlarida shia islomiga o'tgan. So'fiylik ibodatlarining muhim shakllaridan biri – zikr, ya'ni Allohni eslash va yodga olish amaliyotidir. Shu bilan birga, so'fiylar o'z ma'rifiy faoliyatlari orqali islom dinining keng tarqalishida muhim rol o'ynaganlar.

Zamonaviy davrda so'fiylik tariqatlari nisbatan kamaygan bo'lsa-da, ba'zi oqimlarning tanqidiy qarashlariga qaramay, so'fiylik sunniy islomning yangi yo'nalishida muhim ahamiyatini saqlab qolmoqda. Qiziqarli jihati shundaki, tasavvuf atamasi Yevropa tillariga dastlab XVIII asrda sharqshunos olimlar tomonidan kiritilgan.

O'rta asrlarning so'nggi tasavvufchisi va fors shoiri Abdurahmon Jomiy fikricha, Abdulloh ibn Muhammad ibn al-Hanafiya (vafoti 716 y.) birinchi bo'lib

2 Ibn Miskawayh. Refinement of Morals and Cleansing of Ethics Alim Salih: , Cairo —page 10

“so‘fiy” deb atalgan. Tarixiy manbalarga qaraganda, so‘fiylar tariqat deb nomlanuvchi tartiblar orqali faoliyat yuritgan. Bu tartiblar ulug‘ ustoz yoki valiy atrofida shakllangan jamoalardan iborat bo‘lib, ular o‘z ta’limotlarini Islom payg‘ambari Muhammad sollallohu alayhi vasallamga yetib boradigan ketma-ket o‘qituvchilar zanjiri orqali kuzatib kelganlar.

Hadisda ham so‘fiylarning asosiy maqsadi – ehsonga intilish ta’kidlangan: “Ehson – Allohga go‘yo Uni ko‘rayotgandek ibodat qilishingdir; agar sen Uni ko‘rmasang, U seni ko‘rib turuvchidir.” So‘fiylar Muhammad sollallohu alayhi vasallamni al-Insan al-Kamil, ya’ni mutlaq haqiqat va komillik timsoli deb biladilar va uni o‘zlarining ruhiy yo‘lboshchisi sifatida qabul qiladilar.

XI asrdan boshlab, islom taqvosida Abdulqodir Jiloniy, Al-G‘azzoliy va Sultan Salohiddin kabi mashhur shaxslarning so‘fiylik bilan bog‘liqligi tarixiy manbalarda tasdiqlangan. Islom sivilizatsiyasining yuksalishi ko‘pincha so‘fiylik falsafasining keng tarqalishi bilan bog‘lanadi. Tasavvuf nafaqat islom dinining tarqalishida, balki bir xil islom madaniyatini shakllantirishda, xususan, Afrika va Osiyoda hal qiluvchi rol o‘ynagan. Shu jumladan, Xoja Ahmad Yassaviy va Jaloliddin Rumiy kabi so‘fiy shoir va faylasuflar Islom madaniyatining Anadolu, O‘rta Osiyo va Janubiy Osiyoda keng tarqalishiga katta hissa qo‘shganlar. Tariqat – islomda ruhiy poklanish, Allohga yaqinlashish va haqiqiy tasavvuf yo‘lini o‘rgatadigan ma’naviy yo‘nalishdir. So‘zning o‘zi arabcha “Tariqah” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, u “Yo‘l” yoki “Tizim” degan ma’noni bildiradi. Tariqatlar odatda ma’naviy rahbar boshchiligida shakllanadi va ularning maqsadi shaxsni ruhiy jihatdan yetuk qilishdir. Ularning rahbarlari shayx yoki murshidlar hisoblanib, katta hurmatga loyiq shaxs sifatida ulug’lanadi.Tariqat rahbari murshid, unga ergashuvchi shaxslar muridlar deyiladi. Muridlar murshidning ta’limoti va tarbiyaviy usullariga amal qiladi. Tariqatlar asosan qalbni poklash, nafsni nazorat qilish va Allohga yaqinlashishga yo‘naltirilgan. Har bir tariqatning o‘ziga xos ma’naviy yo’nalishlari va metodikasi mavjud. Naqshbandiya, Qodiriyya, Chishtiya kabi tariqatlar o‘ziga xos amaliyotlar bilan ajralib turadi. Eng mashhur tariqat Naqshbandiya bo’lib eng

keng tarqalgan va jiddiy ruhiy intizomga e’tibor qaratadi. Tariqatning asosiy maqsadi shaxsni ruhiy yetuklikka yetkazish, nafsni tarbiyalash va Alloh sevgisini chuqur his qilishdir. Shu yo‘l orqali inson dunyoviy narsalardan tiyilib, ma’naviy kamolga yetadi.

Bahouddin Naqshbandiy yuksak ilm sohibi bo’lgan hamda o’ziga hos Naqshbandiya tariqati asoschisidir. U ham islom ilmi rivojiga va islom ta’limini targ‘ib qilishga katta hissa qo‘shgan. Naqshbandiya ta’limotining asosini “Dil bayoru dast ba kor” ya’ni diling Allohda bo’lsin, qo’ling mehnat bilan band bo’lsin shiori tashkil etadi. Odatlarga ko‘r-ko‘rona amal qilish, riyo va ikkiyuzlamachilik, mutaasiblik qoralanadi. Inson qadri mansabi, moddiyati bilan emas, bilimi bilan o‘lchanadi.

Yakunda shuni aytishimiz mumkinki, tariqatda mansab, boylik yoki tashqi ko‘rinishga emas, balki ma’naviy yetuklikka katta e’tibor beriladi. Halol kasb bilan rizq topish oliy fazilat deb qaralib, tilanchilik, tekinxo‘rlik, darbadarlik, hatto boshqa birovning mehnatidan foydalanish ham qoralangan. Shuningdek, manmanlik, o‘zini shayxlik bilan ko‘rsatish, shovqinli marosimlar orqali odamlar e’tiborini tortish kabi illatlar inkor etiladi. Tasavvuf va tariqatning markazida qalbni poklab borish, nafsni tiyish, Allohni doimiy zikr qilish, adolatli bo’lish tamoyili turadi. Umuman olganda insonni mehnatsevar, kamtar, ma’naviy yetuk va doimo ruhiy ogohlikda bo‘lishga da’vat etuvchi yuksak ma’naviy maktab sifatida e’tirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Komilov N., Tasavvuf. Birinchi kitob, T., 1996;
2. Navruzova G., Naqshbandiya tasavvufiy ta’limoti va barkamol inson tarbiyasi, T., 2002. Ibn Miskawayh.
3. Refinement of Morals and Cleansing of Ethics Alim Salih:, Cairo —page 10